INKLYUZIV TA’LIM – TENG MUNOSABATNI TA’MINLAYDI

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti
Logopediya yo‘nalishi magistranti
Azimova Aziza Baxtiyorovna

2020 yil 23 sentyabr kuni O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida” Qonuni qabul qilindi. Qonunda ta’lim olish shakllarida inklyuziv ta’lim kiritildi. Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlami masalalari har qanday jamiyatda muhim muammolarni biri sifatida egallab kelganini kuzatamiz. Inklyuziv ta’lim – bu asosiy maktablarda alohida ehtiyojli bolalarni o‘qitish jarayonini tavsiflash uchun ishlatiladigan atama. Shu jumladan ularning ta’lim-tarbiya olish jarayonini sifatli tashkil etish, isloh qilib borish, dolzarb masalalardan biridir. Jamiyatda moddiy, ma’naviy, huquqiy himoyaga muhtoj bo’lgan bolalar bilan bir qatorda, alohida ta`lim ehtiyojlari ega bo`lgan bolalar ham boshqa sog`lom tengdoshlar qatori jamiyatga bemalol moslashib, yaqinlari yordamiga muhtoj bo’lib qolmasligi uchun mamlakatimizda joriy qilingan ta`limning barcha turlarini o’rni beqiyos hisoblanadi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 13 oktyabrdagi PQ-4860-son qarori va unga ilova qilingan “2020-2025 yillarda xalq ta`limi tizimida inklyuziv ta`limni rivojlantirish konsepsiyasi” qabul qilindi. Konsepsiyaning 20-moddasi (Inklyuziv ta`lim), 55-moddasi Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo`lgan bolalarni (shaxslarni) o`qitish hamda tarbiyalash va 56-moddasi (Ijtimoiy reabilitatsiyaga muhtoj bo`lgan bolalarni (shaxslarni) o`qitish va tarbiyalash)da alohida ko`makka muhtoj bolalar ta`lim-tarbiyasiga qaratilganligi, inklyuziv ta`lim muhiti sharoitida kasbiy faoliyatni rivojlantirsh zaruriyatini taqazzo etadi.[1]

Zamonaviy dunyoda inson huquqlari va teng imkoniyatlar tamoyillari asosida inklyuziv ta’lim tushunchasi keng tarqalmoqda. Inklyuziv ta’lim – bu har bir bola, ularning jismoniy, ruhiy, intellektual yoki ijtimoiy holatidan qat’i nazar, umumiy ta’lim muassasalarida teng sharoitlarda ta’lim olishini ta’minlovchi yondashuvdir.

Zamonaviy dunyoda inson huquqlari va teng imkoniyatlar tamoyillari asosida inklyuziv ta’lim tushunchasi keng tarqalmoqda. Inklyuziv ta’lim – bu har bir bola, ularning jismoniy, ruhiy, intellektual yoki ijtimoiy holatidan qat’i nazar, umumiy ta’lim muassasalarida teng sharoitlarda ta’lim olishini ta’minlovchi yondashuvdir.
Inklyuziv ta’limning asosiy g‘oyasi – har bir bolaning o‘ziga xos ehtiyojlarini hisobga olgan holda, unga maksimal darajada mos keladigan o‘quv muhitini yaratish. Bunda:

[1] “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4860-sonli qarori 2020-yil 13-oktabr // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 14.10.2020 yil, 07/20/4860/1383-son)

Tenglik: Barcha bolalar bir xil imkoniyatlarga ega bo‘ladi.

Qamrov: Maktab va sinf xonalari har bir bolani qabul qilishga tayyor bo‘ladi.

Ishtirok: Har bir bola ta’lim jarayonida faol ishtirok etadi.

Muvaffaqiyat: Har bir bola o‘z qobiliyati darajasida yutuqqa erishadi. Inklyuziv ta’limning asosiy maqsadlaridan biri – bolalarni kelajakda jamiyatning to‘laqonli a’zosi bo‘lishlari uchun tayyorlash, ular o‘rtasida hamjihatlik, bir-birini tushunish va hurmat qilish kabi qadriyatlarni shakllantirishdir. Inklyuziv ta’limning asosiy maqsadlaridan biri – bolalarni kelajakda jamiyatning to‘laqonli a’zosi bo‘lishlari uchun tayyorlash, ular o‘rtasida hamjihatlik, bir-birini tushunish va hurmat qilish kabi qadriyatlarni shakllantirishdir.

O‘quvchilar uchun: Ijtimoiy ko‘nikmalari rivojlanadi, turlicha qarashlarni tushunishni o‘rganadi. Hamdardlik va toqatlilik hissi ortadi. Akademik natijalari yaxshilanishi mumkin, chunki o‘qituvchilar har bir o‘quvchiga individual yondashishga majbur bo‘ladilar. O‘ziga bo‘lgan ishonchi ortadi.

O‘qituvchilar uchun: Individual o‘qitish metodikalarini takomillashtiradilar. Turlicha o‘quv uslublari va pedagogik yondashuvlarni o‘zlashtiradilar. Muammoli vaziyatlarni hal qilish ko‘nikmalari rivojlanadi.

Jamiyat uchun: Kamsitish va diskriminatsiya kamayadi. Har bir fuqaroning salohiyatidan to‘liq foydalaniladi. Ko‘proq tolerant va hamjihat jamiyat shakllanadi. Pedagoglarga maslaxat:Pedagoglar uchun muntazam malaka oshirish kurslari, treninglar va seminarlar tashkil etish, maxsus psixolog va defektologlarni ishga jalb qilish. Individual o‘quv rejalarini yaratish va ularni muntazam takomillashtirish tizimini joriy etish.


Ota-onalarga maslaxat Inklyuziv ta’lim – bu faqat imkoniyati cheklangan bolalar uchun emas, balki barcha bolalar va butun jamiyat uchun katta imkoniyatdir. Uning samarali amalga oshirilishi uchun davlat, ta’lim muassasalari, pedagoglar, ota-onalar va jamoatchilikning birgalikdagi sa’y-harakatlari zarur. Inklyuzivlikni ta’lim tizimiga chuqurroq singdirish orqali biz har bir bolaning o‘z salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarishiga va jamiyatning faol, teng a’zosi bo‘lib yashashiga sharoit yaratamiz.

Jamiyatni inklyuziv ta`limga tayyorlash va ijobiy munosabatni shakllantirish

Jamiyatda nogiron bolalar haqidagi bilimlarning yetishmasligi natijasida, alohida ta’lim ehtiyojga ega bo‘lgan bolalar ko‘pincha, ta’lim-tarbiyaga noloyiq hisoblanib, ta’lim jarayonidan chetda qolish holatiga duch kelmoqda. Bundan tashqari, nogiron bolalarning qobiliyatlari, huquqlari va ehtiyojlariga doimiy e’tibor qaratilmasa, ular o‘z imkoniyatlariga ishonmasligi natijasida, salbiy fikr va munosabatlarga ega bo’lib, ishonchsizlik shakllanishi mumkin. Qanday jamiyat bo’lishidan qatiy nazar, har bir bola o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, maxsus

ehtiyojga ega bolalar ham teng huquq va intilishlarga ega ekanligi to‘g‘risida to‘liq tushuncha hosil qilish muhimdir.

Ushbu bilimlarni chuqur o‘zlashtirish imkoniyati cheklangan bolalar bilan samarali va mazmunli ishlashni ta’minlaydi. Bu esa nafaqat nogiron bolalar uchun, balki ularning oilalari, jamiyati va davlat darajasidagi ta’lim tizimi uchun ham katta ahamiyat kasb etadi. Nogironlikni anglashda asosiy ikki yondashuv — tibbiy va ijtimoiy nuqtai nazar mavjudligini to‘liq anglamasdan, barcha bolalar, hatto og‘ir nogironlikka duch kelganlar ham, bir xil mehribon va ularga mos ta’lim tizimiga jalb qilinishidagi sa’y-harakatlar samaradorligi kamayib qoladi.



Nogiron kishilari- asosiy ehtiyojlarini qondirish uchun xizmatlarning minimumini kam oluvchilar.[2]

Ta`lim tizimida bugungi kunda ham mavjud bo’lgan **“umumta`lim”** va **“maxsus ta`lim”** o`rtasidagi sun`iy farqlarni olib tashlash zarur.

Inklyuziv ta`limning dolzarb muammolari


Bugungi kunda ko`plab davlatlarda inklyuziv ta`limni amaliyotga joriy etish borasida bir qator qiyinchiliklar mavjud. Ushbu muammolar quyidagilarni o`z ichiga oladi:

1.Inklyuziv ta`limga oid davlat normativ-huquqiy hujjatlar yetarlicha ishlab chiqilmaganligi yoki amalda to`liq qo`llanmasligi.


[2] Ture Yonson –“Inklyuziv ta`lim” -Toshkent- “Opereyshen Mersi” 2003 yil.
L.R.Mo`minova. Inklyuziv ta`limnong nazariy va amaliy asoslari. T.: Compleks print. 2018.

2.Imkoniyati cheklangan bolalarga nisbatan jamiyatda mavjud bo`lgan salbiy, o'rinsiz, ijobiy bo`lmagan qarashlar va stereotiplar.
3.Imkoniyati cheklangan bolalarning jamiyat hayotida "ko`rinmas"ligi, ya`ni ularning ijtimoiy jarayonlardan chetda qolishlari.
4.Maktablarda imkoniyati cheklangan bolalarning o`zlarini to`la ifoda eta olmasligi yoki ko`zga tashlanmasligi.
5.Moliyaviy resurslarning yetishmasligi, tejalishi bu esa inklyuziv ta`limni rivojlantirishga murakkab omil sifatida salbiy ta`sir ko`rsatadi.
5.Ta`lim muassasalarining imkoniyati cheklangan bolalarga moslashtirilmaganligi, moslashtirishidagi murakkabliklar va infratuzilma yetishmasligi.
6.Sinf va guruhlardagi bolalar sonining ko`pligi, bu esa pedagoglar tomonidan individual yondashuv ko`rsatishga vaqt yetishmasligi natijasidaa vaziyatni yanada qiyinlashishi.
7.Jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy tomondan kam ta`minlangan oilalardan chiqqan bolalar uchun ta`limga kirishda to`siqlarning mavjudligi.
8.Jinsga asoslangan kamsitish va tengsizlik muomalalari.
9.Imkoniyati cheklangan bolalarning boshqalarga qaramlik holatlari;
10.Favqulodda vaziyatlar, urushlar, nizolar va qochqinlik kabi holatlar ta`lim jarayoniga salbiy ta`sir ko`rsatadi;
11.Malakali kadrlarning yetishmasligi va pedagoglarning inklyuziv ta`lim sohasida yetarli tayyorgarlikka ega emasligi.

Shu nuqtai nazardan, shunch muammolar bo'la turib, savol tug`iladi:
Yuqorida keltirilgan muammolarni hal etib inklyuziv ta`lim tizimiga o`tishdan jamiyatga qanday naf va zaruriyat bor?
Nega aynan jamiyatda boshqa muammolar qolib, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni inklyuziv ta`lim tizimiga jalb qilish lozim?
Jamiyat va ta`lim tizimi oldida turgan ushbu dolzarb muammolarni hal qilish oson kechmaydi. Ammo inklyuziv ta`lim tizimining jamiyat uchun nafli jihati va zarurati juda ko`p va ular sirasiga qo`yidagilar kiradi:



Inklyuziv ta`lim - **ta`limning turlari**ga **qo`yidagi** muvofiq amalga oshiriladi**:**



doirasida ta’limning ikkinchi bosqichi bo’lgan umumiy o’rta va o’rta maxsus turiga quyidagi sabablarga ko’ra alohida yondoshiladi:

- bola hayotining shaxs sifatida kamol topishi uchun eng qulay va zarur bo’lgan davriligi;
- davriyligi jihatdan uzoq davom etishi;
-voyaga yetmaganligi (ota-ona, ota-ona o’rnini bosuvchi, homiy, vasiy yordamiga muhtojligi, yashash, o’qish huquqi) tufayli fanning diqqat markazida turadi.

Maktabgacha ta’lim va tarbiya bola uch yoshga to’lgandan sung amalga oshiriladi va va yeti yoshga to’ladigan yiligacha davom etadi. Istisno tariqasida bu muddat bir yilga ya’ni sakkiz yoshgacha o’zaytirilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. Шомахмудова, Р. Ўзбекистонда махсус ва инклюзив таълим.– Т.: Чашма принт.2011– 128 б.

2. ”Inklyuziv ta’limning dolzarb masalalari: muammo va ularning yechimlari” xalqaro ilmiy amaliy konferensiya materiallar to’plami. Toshkent shahri -2011 yil 26 mart
3. Madatov I.Inklyuziv ta’lim. Darslik.Fan va ta’lim.-2024.T BEST-PUBLISH
4. Kaxarova D.S. Inklyuziv ta’lim texnologiyasi. Monografiya. – T.: «Fan va texnologiya», 2014. – 192 b.